

ROHINGYA MUSULMONLARINING GEOSIYOSIY VA MIGRATSION HOLATI

Nazarov Didar Maxsat o'g'li Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Geografiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

nazarovdidar7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Rohingya musulmonlarnong hayot tarzi, geosiyosiy ahvoli va migratsiyada tutgan o'rni chuqur va qisqa holatda bayon qilinadi. Maqolada ushbu xalqlarning yashash hududi geografik xaritalarda ko'rsatib beriladi va tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Rohingya musulmonlari, migratsiya, siyosiyat, genotsid, ocharchilik muammosi

KIRISH. Rohingya xalqi – fuqaroligi bo'lmagan hind aryan guruhi bo'lib, ular asosan islom diniga e'tiqod qilishadi. Ozlichilik qismi esa xristian va hinduizm diniga e'tiqod qiluvchilar sanaladi. Ushbu xalqlar dunyodagi eng quvg'in qilingan ozchiliklardan xalqlardan biri sifatida turli tashkilotlar, jurnalistlar va agentliklar tomonidan ta'riflangan. Ushbu xalq vakillari 1940-yildan buyon genotsidga doimiy ravishda yuz tutgan .

O'zi genotsid nima degan savolga tuzgandan? **Genotsid** (grekcha -urug', qabila va lotincha – o'ldiraman) degan ma'noni anglatib, xalqaro jinoyatlarning bir turi, irqi, millati, dini, etnik tarkibiga ko'ra aholi guruhlarining yoppasiga yo'ki qisman qirib yuborilgan harakatlar hisoblanadi. Rohingya xalqi ham hanuzgacha genotsid qurboni bo'lmoqda.

Migratsiya (lotin tilida migration so'zidan olingan bo'lib, ko'chish , ko'chib o'tish degan ma'noni anglatadi) – kishilarning o'z doimiy yashash joylarini doimiy yoki uzoqroq muddatga ma'muriy chegarani kesib o'tgan holda o'zgartirishdir.

ASOSIY QISM. Rohingya xalqining ko'pchiligi islom diniga e'tiqod qilganligi sababli ular dunyo miqyosida “Rohingya musulmonlari” nomi bilan ko'proq mashhurdir. Rohingya xalqining dunyodagi rasmiy manbalarda va statistika ko'rsatkichlarida 1,5-2 mln aholidan tashkil topgan deb ma'lumotlar ko'rsatilgan. Ammo ularning umumiy soni dunyo miqyosida 3 mln aholiga ham yaqinlashgan. Ularning dunyo miqyosida tarqalishini va ko'proq davlatlarda tarqalganligini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Tartib raqami	Rohingya xalqlarining davlatlar ksimida tarqalishi	Umumiy soni
1	Banladesh	1500000
2	Pokiston	500000
3	Myanma (Birma)	300000
4	Saudiya Arabistoni	190000
5	Malayziya	150000
6	Hindiston	22500

Manba: https://en.m.wikipedia.org/wiki/Rohingya_people

Ushbu yuqoridagi jadvalda eng ko'p tarqalgan soni jihatidan ko'p bo'lgan davlatlar berilib o'tildi. Ammo ular dunyoning boshqa mamlakatlarida istiqomat qilishi ham mumkin.

Rohingyalar Myanma davlati hududi rohingya nomi bilan emas balki "bengal" nomi bilan ataladi. Rohingya musulmonlari davlati bo'lmagan xalqlardan sanaladi. Ushbu xalqlarning azaldan yashagan va istiqomat qiladigan hududi Arakan (Rakvin shtati) hududi sanaladi. BMT ma'lumotlariga ko'ra dunyodagi fuqaroligi bo'lmagan aholining 1/7 qismi ushbu xalq hissasiga to'g'ri keladi. 2017-yilda Myanmada bo'lgan namoyishlarda rohingyaliklarning ko'pchiligi buddist rohiblar va hattoki mahalliy aholi, hukumat tomonidan tahdid tufayli ko'pchiligi Bangladesh, Indoneziya, Tailand, Malayziya kabi noqonuniy ravishda migratsiyani dengiz yo'llari orqali amalga oshirganlar. Ammo davlatlar tomonidan ushbu xalqlar qabul qilinmagan, borganlar kaltaklangan va ochiqchasiga ortga ochiq dengizga qaytarib yuborilgan. Bu migratsiyada qatnashganlarning ko'pchiligi ayollar va yosh bolalardan tashkil topgan. Ular dengizda oziq-ovqat, to'fonlar va toza ichimlik suvidan qiynalib vafot etgan. Dengizda yagona najotkor bu boshqa kemalar bilan to'qnash kegani bo'lgani deymiz mumkin. Rohingya siyosiy qochqinlarining ko'pchiligi Bangladeshga (530ming), Malayziyaga (168 ming), Hindistonga (93 ming) va Tailandga (84 ming) ta qochqinlar borganligi qayd etilgan.

**1-rasm. Rohingya musulmonlarining migratsiya jarayoning kartada aks
ettirilishi**

Bangladeshdagi rohingya musulmonlarning ko‘pgina qismi lagerlarda istiqomat qilmoqda . Bulardan eng ko‘p tanilgan lager nomlari Koks-Bazar shahridagi Kutupalong va Nayapara qochqinlar lageri hisoblanadi. Kutupalong qochqinlar lagerida 300 mingta Rohingya musulmonlari yashamoqda. Ular ushbu lagerlarda oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligi, sanitariya – gigeyana mavjud emasligi, toza ichimlik suvining yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Bu lagerlarda iste’mol qilinadigan asosiy o‘zuq-ovqat mahsulotlari guruch va dukkakli o‘simlik mahsulotlaridir. Aynan lagerlarda yashovchi homilador ayollar oqsil yetishmovchiligidan qiynaladilar. So‘nggi yillarda Bangladeshda ko‘pgina qochqinlari lageri tozalanib ayniqsa rohingya musulmonlari Bhashan Char oroliga ko‘chirilmoqda. Bhashan Char oroli Himolay tog‘larining oqizib tashlagan g‘oyasidan paydo bo‘lgan orol hisoblanadi. Bu yerda iqlim siklonlari tufayli ko‘plab tropik bo‘ronlar sodir bo‘ladi va yashashga noqulaylik tug‘diradi. Bhashan Char oroliga hozirda 30000 dan ortiq

rohingya musulmonlari ko'chirilgan. Ushbu orolga Bangladesh hukumati tomonidan 100 mingta yana rohingya musulmonlari ko'chirilish rejalashtirilgan.



2-rasm. Bhachan Chan orolining geografik joylashuvi

Rohingya musulmonlarining ko'chishiga quyidagi bir qancha migratsion omillar ta'sir etishi mumkin. Ular ta'sir etishi bo'yicha bir-biridan keskin farq qiladi.

Asosiy omillar:



1-sxema. Migratsiyaga ta'zir etuvchi asosiy omillar

Albatta yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillar umumiy migratsiya omillari bo'lib ularning bir nechtasi rohingya musulmonlarining migratsiyasiga ta'sir etishi mumkin. Chunonchi rohingya musulmonlarining migratsiyasiga siyosiy, ijtimoiy hamda ekologik omillarning ta'siri sezilarlidir. Siyosiy omillardan rohingya musulmonlariga Myanma hukumatining diniy taqdidlari, ularning o'z yurtidan chiqarib yuborilishi, mol-mulking talan-taroch qilinishini ko'rsatishimiz mumkin. Ijtimoiy omillarga esa

oziq-ovqat va toza ichimlik suvining yetishmovchiligi, mamlakatda erkin yashab bo'lmasligini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Ekologik omilga to'xtaladigan bo'lsak, rohingya musulmonlarining Bangladesh davlati hududida musson yomg'irlarining bo'lishi, ular qurgan chodirlarning (chodirlar albatta o'tin, buta yoki shox-shapba bo'laklaridan tashkil to'padi) iqlim elementlari tufayli vayron bo'lishini ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Ushbu xalqlar ko'p holatda o'zlari ham ekologiya katta zarar yetkazmoqda . Masalan, ular tomonidan ko'plab akkra o'rinlarning kesilishi va hayvon olami ekotizimining aziyat chekayotganini aytib o'tishimiz mumkin.

XULOSA. Umumiy xulosa qilib aytganda ushbu xalq vakillari yurtsiz odamlar sifatida jahon miqyosida ko'rsatilgan va ular ozchilikni tashkil etadi. Shunday bo'lsa ham bular tinch yurt topish ilinjida sarson-sargazdon bo'lmoqda. Ularning o'z ona vatani bo'lgan Myanma yana qaytarish imkoni bo'lishi mumkin, ammo bu ehtimoli holat. Chunki hozirda Myanma bo'lgan adovat va munosabat haliham yaxshilanmagan. Myanmada ushbu xalqlarga ta'ziq o'tkazishiga yana bir sabab Banyandagi budda haykalining tolibon guruhlar tomonidan buzilib tashlanganidir. Ushbu mavzuni geografik jihatdan o'rganish dolzarb mavzulardan biridir. Aynan rohingya musulmonlarining hayot tarzini jinoyatchilik geografiyasi, tibbiyot geografiyasi, din geografiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy geografiya hamda siyosiy geografik jihatdan keng va tahlillar asosida o'rganish maqsadga muvofiq deb o'ylayman.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Z.N.Tojiyeva. Aholi geografiyasi darslik. Toshkent "Noshir" 2019.
2. Komilava N.Q., Jumaxanov Sh.Z., Mirzaahmedov X.S., Toshpo'latov A.M. Sotsial va madaniy geografiya darslik. Toshkent "Shafoat Nur Fayz", 2020,-256 bet
3. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Rohingya_people
4. <https://msf.org.au/rohingya-worlds-largest-stateless-population>
5. <https://www.unicef.org/emergencies/rohingya-crisis>
6. https://en.m.wikipdia.org/wiki/Rohingya_conflict
7. <https://www.economist.com/asia/2022/08/18/the-rohingyas-are-being-wipe-d-out-in-slow-motion>